



**BOLALARDA ALLERGIK KASALLIKLAR: ATOPIK DERMATIT,
BRONXIAL ASTMA VA OZIQ-OVQAT ALLERGIYASINING
KLINIK VA TERAPEVTIK XUSUSIYATLARI**

**АЛЛЕРГИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ У ДЕТЕЙ: КЛИНИКО-
ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АТОПИЧЕСКОГО
ДЕРМАТИТА, БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМЫ И ПИЩЕВОЙ
АЛЛЕРГИИ**

**ALLERGIC DISEASES IN CHILDREN: CLINICAL AND
THERAPEUTIC FEATURES OF ATOPIC DERMATITIS,
BRONCHIAL ASTHMA AND FOOD ALLERGY**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Pediatrica yo'nalishi talabasi

Mamarasulova Nazokat Jo'rabekovna

Annotatsiya: Bolalar orasida keng tarqalgan allergik kasalliklar — atopik dermatit, bronxial astma va oziq-ovqat allergiyasining klinik kechishi, tashxis usullari hamda davolash yondashuvlari o'rganildi. Tadqiqot 2023–2024 yillarda viloyat bolalar shifoxonasida olib borilib, 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 150 nafar bemor tahlil qilindi. Atopik dermatitda SCORAD indeksi, astmada spirometriya ko'rsatkichlari va oziq-ovqat allergiyasida prick-test va IgE darajasi asosida diagnostika qo'yildi. Olingan natijalar kasalliklarning yuqori uchrash tezligini, erta tashxis va kompleks davolash zarurligini ko'rsatdi. Xulosalarda allergik kasalliklarni erta aniqlash, ota-onalarni o'qitish va zamonaviy terapevtik yondashuvlarning ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: allergik kasalliklar, atopik dermatit, bronxial astma, oziq-ovqat allergiyasi, lihenifikatsiya, SCORAD (Scoring Atopic Dermatitis), spirometriya, urtikariya, prick-testlar, dieta.



Аннотация: Изучены особенности клинического течения, методы диагностики и подходы к лечению распространенных аллергических заболеваний у детей: атопического дерматита, бронхиальной астмы и пищевой аллергии. Исследование проводилось в 2023–2024 годах на базе областной детской больницы, обследовано 150 пациентов в возрасте от 1 до 14 лет. Диагноз ставился на основании индекса SCORAD при атопическом дерматите, показателей спирометрии при астме, а также прик-теста и уровня IgE при пищевой аллергии. Результаты показали высокую заболеваемость, необходимость ранней диагностики и комплексного лечения. В выводах подчеркивается важность раннего выявления аллергических заболеваний, просвещения родителей и современных терапевтических подходов.

Ключевые слова: аллергические заболевания, атопический дерматит, бронхиальная астма, пищевая аллергия, лихенификация, SCORAD (шкала оценки атопического дерматита), спирометрия, крапивница, прик-тесты, диета.

Abstract: The article examines the clinical course, diagnostic methods, and treatment approaches for common allergic diseases in children: atopic dermatitis, bronchial asthma, and food allergies. The study was conducted in 2023–2024 at the regional children's hospital; 150 patients aged 1 to 14 years were examined. The diagnosis was based on the SCORAD index for atopic dermatitis, spirometry values for asthma, and a skin prick test and IgE levels for food allergies. The results showed high morbidity, the need for early diagnosis, and comprehensive treatment. The conclusions emphasize the importance of early detection of allergic diseases, parental education, and modern therapeutic approaches.

Keywords: allergic diseases, atopic dermatitis, bronchial asthma, food allergy, lichenification, SCORAD (Scoring Atopic Dermatitis), spirometry, urticaria, prick tests, diet.



Kirish

Hozirgi kunda bolalarda allergik kasalliklarning tarqalishi butun dunyoda ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har uchinchi bola hech bo'lmaganda biror allergik kasallikdan aziyat chekmoqda. Bu guruhga kiruvchi atopik dermatit, bronxial astma va oziq-ovqat allergiyasi bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu kasalliklarning klinik kechishini, diagnostika yondashuvlarini va davolash strategiyalarini o'rganishdir.

Asosiy qism

Allergik kasalliklar bolalarda surunkali kechadigan, immun tizimining giperreaktivligi bilan bog'liq bo'lgan patologiyalar bo'lib, ularning tarqalish sur'ati butun dunyoda ortib bormoqda ¹. Bu guruhga kiruvchi atopik dermatit (AD), bronxial astma (BA) va oziq-ovqat allergiyasi (OOA) eng ko'p uchraydigan shakllardir.

Atopik dermatit — bu surunkali, qaytalovchi, yallig'lanishli teri kasalligi bo'lib, odatda hayotning ilk yillarida boshlanadi ². Kasallik patogenezida terining to'liq funksiyasining buzilishi, filaggrin genining mutatsiyasi ustunligi muhim rol o'ynaydi ³. Past namlik va past harorat atopik dermatit bilan og'rigan bemorlarda jarayonning og'irlashish xavfini oshiradi. Atopik dermatit odamlarning taxminan 20 % ga hayotining biror nuqtasida ta'sir qiladi. Bu yosh bolalarda ko'proq uchraydi. Ayollar erkaklarga qaraganda bir oz ko'proq kasallanadi. Klinik jihatdan AD qichishish, eritemalar, ekskoriatsiyalar va lihenifikatsiya bilan namoyon bo'ladi. Lihenifikatsiya- teri rangining o'zgarishi, qalinlanishi dag'allashishi yoki yallig'lanishi bilan kechadi. Atopik dermatit yoshga

¹ WHO. Allergic diseases: global burden. World Health Organization, 2020.

² Pawankar R. Allergic diseases and asthma: a global public health concern. World Allergy Organization Journal, 2014.

³ 3. Bieber T. Atopic dermatitis. New England Journal of Medicine, 2008.



qarab turli xil alomatlar bilan namoyon bo'ladi: Chaqaloqlarda -yuzda toshma (peshona, yonoqlar), tirsaklar, bilaklar va boldirlarning bukilish sohasida, dumba terisida toshmalar. Bolalarda- shilinmalar, tizza va tirsak bukilish sohalarida, qo'l, bo'yin va ko'krakning yuqori qismi va peshonada toshmalar. Kasallik SCORAD (Scoring Atopic Dermatitis) shkalasi asosida baholanadi ⁴.

So'nggi yigirma yil ichida astma bilan kasallanish holatlari ko'paydi va bugungi kunda astma ta'siridan taxminan 300 million kishi aziyat chekadi. Bu jins va yoshdan qa'tiy nazar, insonlarda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklar sirasidan. Bronxial astma bilan kasallanganlar orasida o'lim darajasi juda yuqori. So'nggi yigirma yil ichida bolalardagi bronxial astma holatlari ortib borishi bunday hoaltni nafaqat kasallik, balki ijtimoiy muammo deb qarashga undamoqda va unga qarshi kurash uchun maksimal kuchlar qaratilgan.

Bronxial astma — bolalarda eng ko'p uchraydigan surunkali respirator kasallik bo'lib, uning asosida havo yo'llarining gipereaktivligi, surunkali yallig'lanish va epizodik obstruksiya yotadi ⁵. Astma fenotiplari orasida allergik (IgE vositachiligida) shakli bolalarda ustunlik qiladi. 12 yoshdan oldin boshlangan astma genetik ta'sir tufayli ko'proq yuzaga kelishi mumkin, 12 yoshdan keyin paydo bo'lishi esa atrof-muhit ta'siri tufayli ko'payishi mumkin. Sabab omillari havodagi chang zarralari, uy hayvonlari nisbatan allergiya, allergen kimyoviy moddalar (kir yuvish yoki tozalash vositalari). Bu omillar nafas olish yo'llari sezgirligini oshiradi va bronxial astmani keltirib chiqaradi. Klinik belgilari – kechasi kuchayadigan yo'tal, nafas qisilishi, "hushtak"simon nafas va jismoniy faollikdan keyingi holsizlikdir ⁶. Bronxial astmaning kechishi avj olish va remisiiya davrlaridan iborat, kasallik o'z vaqtida aniqlanganda tegishli davolash

⁴ Silverberg J.I. Comorbidities and the impact of atopic dermatitis. Annals of Allergy, Asthma & Immunology, 2019.

⁵ S.G.Rustemovna Bolalarda bronxial astma kasalligi va uni davolash aspektlari, 2024.

⁶ Sicherer SH, Sampson HA. Food allergy: Epidemiology and natural history. Immunology and Allergy Clinics of North America, 2018.



choralari bilan uozq muddatli va samarali remissiyaga erishish mumkin. Kasallikning yakuni bemor o'z salomatligi haqida qanday qayg'urishi va shifokor ko'rsatmalariga qanday amal qilishiga bog'liq. Diagnostika uchun spirometriya asosiy ahamiyatga ega, FEV1 ko'rsatkichining kamayishi va reversibil bronxial obstruktsiya mezoni (bronxodilatatoridan so'ng yaxshilanish) muhim hisoblanadi ⁷. Hozirgi ekologiya muammolarini inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki bronxial astma rivojlanish xavfi yuqori.

Oziq-ovqat allergiyasi - bu oziq-ovqat mahsulotlari, taomlar yoki ichimliklarning tarkibiy qismlariga kuchli allergik reaksiya. Ko'pincha u bolalarda namoyon bo'ladi, lekin 5 yoshga kelib, odatda o'tib ketadi. Katta yoshli odamlarda oziq-ovqat allergiyasi kam uchraydi va ko'pincha pollinoz bilan birga uchraydi. Bolalar orasida eng ko'p allergiya chaqiruvchi mahsulotlar: sigir suti, tuxum, yer yong'oq, soya, rezavor mevalar va dukkakli mahsulotlar ⁸. Klinik jihatdan urtikariya, qusish, qorinda og'riq, diareya va og'ir hollarda anafilaksiya bilan namoyon bo'ladi ⁹. Urtikariya- xalq orasida qichima yoki toshma deb ataladi bu terida to'satdan paydo bo'ladigan, qizil, qichishadigan, yassi ko'tarilgan dog'lar bilan namoyon bo'ladigan allergik reaksiyalar. Bu toshmalar odatda bir necha soatdan keyin yo'qoladi, lekin yangilari paydo bo'lishi mumkin. O'tkir- qisqa muddatli, odatda 6 haftagacha davom etadi va surunkali- 6 haftadan ortiq davom etuvchi turlari mavjud. Tashxislashda prick-testlar, serum IgE tahlillari, eliminatsion parhez va provokatsion testlardan foydalaniladi. Prick-testlar- skrining tekshiruviga o'xshaydi, ammo yashirin allergen surilgan bemor terisi tirnash o'rniga ozgina qizdiriladi (prick

⁷ Allen KJ, et al. Food allergy—Time for a new approach? *Pediatric Allergy and Immunology*, 2014.

⁸ Leung DYM, Guttman-Yassky E. Pathogenesis of atopic dermatitis. *Nature Immunology*, 2014

⁹ Bacharier LB, et al. Diagnosis and treatment of asthma in childhood. *Journal of Allergy and Clinical Immunology*, 2018.



ingliz tilidan S ukol). 15-20 daqiqa o'tgach terida reaksiya mavjudligiga tekshiriladi. Qizarish va qavariq — allergen aniqlanganining alomati.

Tadqiqot 2023–2024 yillar davomida viloyat bolalar shifoxonasining allergologiya bo'limida olib borildi. Tadqiqotda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan, klinik simptomlari mavjud bo'lgan 150 nafar bola ishtirok etdi. Bemorlar quyidagi guruhlariga ajratildi:

Atopik dermatit bilan – 68 nafar (45%)

Bronxial astma bilan – 52 nafar (35%)

Oziq-ovqat allergiyasi bilan – 30 nafar (20%)

Odatda allergik kasalliklar yechimi sifatida parhezga murojat qilinadi. Parhez simptomlarni kamaytirib kasallik yengil kechishida muhim rol o'ynaydi. Atopik dermatit bilan og'rigan bolalarning ko'pchiligida oziq-ovqat mahsulotlariga sezuvchanlik aniqlanadi. Shuning uchun gipoallergen dieta tavsiya etiladi:

Sigir suti, tuxum, yong'oqlar, baliq, dengiz mahsulotlari, sitrus mevalar, shokolad va qizil mevalar cheklanadi

Ona suti bilan boqilayotgan chaqaloqlarda ona parhez tutadi.

Kichik yoshdagi bolalarda zarur hollarda gipoallergen aralashmalar tavsiya qilinadi.

Oziq-ovqat aleriyasida bemorda aniq allergen aniqlangach, u elimatsion parhez asosida butunlayratsiondan chiqariladi. Misol uchun:

Tuxumga allergiya bo'lsa – barcha tuxumli mahsulotlar (makaron, non, pishiriqlar) chiqariladi

Sigir sutiga allergiya – sut, yogurt, smetana, sariyog', sutli shokolad cheklanadi

Yer yong'oqqa allergiya – yong'oqlar, yer yong'oqli nonushta, shirinliklar ratsiondan chiqariladi.

Xulosa

Ushbu maqola allergik kasalliklarning bolalar orasida keng tarqalganligini va ularning har birining o'ziga xos klinik va laborator



xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu kasalliklarni erta aniqlash, to'g'ri tashxislash, zamonaviy terapevtik yondashuvlarni qo'llash, shuningdek, ota-onalar bilan faol ishlash kasalliklarni samarali nazorat qilish va asoratlarning oldini olishda muhim omildir. Havoda zararli gazlar, chang zarralari bor ekan organizmimiz allergik kasalliklarga moyilligi oshib bormoqda shunday ekan bolalarning ovqatlanish ratsionidan allergen moddalar: sun'iy konservalar, iste'mol bo'yoqlari kabilarni chiqarishimiz lozim. Doimo tabiiy va foydali meva sabzavotlardan foydalanish va iste'mol qilish eng to'g'ri yo'l .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WHO. ALLERGIC DISEASES: GLOBAL BURDEN. WORLD HEALTH ORGANIZATION, 2020.
2. PAWANKAR R. ALLERGIC DISEASES AND ASTHMA: A GLOBAL PUBLIC HEALTH CONCERN. WORLD ALLERGY ORGANIZATION JOURNAL, 2014.
3. BIEBER T. ATOPIC DERMATITIS. NEW ENGLAND JOURNAL OF MEDICINE, 2008.
4. SILVERBERG JI. COMORBIDITIES AND THE IMPACT OF ATOPIC DERMATITIS. ANNALS OF ALLERGY, ASTHMA & IMMUNOLOGY, 2019.
5. S.G.RUSTEMOVNA BOLALARDA BRONXIAL ASTMA KASALLIGI VA UNI DAVOLASH ASPEKTLARI, 2024.
6. SICHERER SH, SAMPSON HA. FOOD ALLERGY: EPIDEMIOLOGY AND NATURAL HISTORY. IMMUNOLOGY AND ALLERGY CLINICS OF NORTH AMERICA, 2018.
7. ALLEN KJ, ET AL. FOOD ALLERGY—TIME FOR A NEW APPROACH? PEDIATRIC ALLERGY AND IMMUNOLOGY, 2014.
8. LEUNG DYM, GUTTMAN-YASSKY E. PATHOGENESIS OF ATOPIC DERMATITIS. NATURE IMMUNOLOGY, 2014.